

## IJTIMOIY DAVLAT XUSUSIYATLARI VA XALQARO TAJRIBA

*Jabborov Muhammadjon Sunnatullo o'g'li**Buxoro davlat universiteti**Yursiprudensiya kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi, uning mohiyati va rivojlanish bosqichlari o'rganilgan. Muallif ijtimoiy davlatning asosiy vazifalari – fuqarolarning ijtimoiy himoyasi, tenglikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash masalalarini yoritadi. Shuningdek, ijtimoiy davlatning zamonaviy shakllari va global jarayonlar ta'siri, davlat siyosatining ijtimoiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada turli olimlarning ijtimoiy davlatga oid qarashlari va ijtimoiy davlatning funksiyalari hamda uning iqtisodiy va huquqiy asoslari ko'rsatib o'tilgan.

**Abstract:** This article explores the concept of the social state, its essence, and stages of development. The author highlights the primary functions of the social state, including social protection of citizens, ensuring equality, and maintaining economic and social stability. Additionally, modern forms of the social state and the influence of global processes on it are analyzed, along with the social directions of state policy. The article also presents various scholars' views on the social state, its functions, and its economic and legal foundations.

**Аннотация:** В статье рассматривается понятие социального государства, его сущность и этапы развития. Автор выделяет основные функции социального государства, такие как социальная защита граждан, обеспечение равенства, поддержание экономической и социальной стабильности. Анализируются современные формы социального государства и влияние глобальных процессов на него, а также социальные направления государственной политики. В статье приводятся различные взгляды учёных на социальное государство, его функции, экономические и правовые основы.

Ijtimoiy davlat tushunchasiga ta'rif berishda O'zbekistonlik siyosatshunos olim K. Rabbimovning quyidagi fikrlarini ham keltirib o'tsak: Ijtimoiy davlat –bu eng avvalo mas'uliyat, chunki davlat, hukumat o'z xalqini ijtimoiy himoya qilish borasida, konstitutsion majburiyatlar oladi. Qolaversa, bu –maqom, chunki dunyoning eng farovon davlatlari, aslida, ijtimoiy himoya tizimi ancha kuchli bo'lgan davlatlar hisoblanadi. “Ijtimoiy davlat” tushunchasining asosida, fundamentida “tenglik” qadriyati yotadi. Insonlar, tabiatan, boshqalarga qaraganda kamsitilganroq bo'lishni istashmaydi. Boshqalar tomonidan ekspluatatsiya qilinishni xohlamaydi.

XX asr –bu tenglik uchun har xil modellarning kurashuv asri bo‘ldi. Insonlarni teng qilish uchun, haybatli va totalitar davlatlar paydo bo‘ldi. SSSR va uning atrofidagi sotsialistik lager, Xitoy Xalq Respublikasi, Shimoliy Koreya va hokazolar, insonlarni teng qilish uchun erkinlikni bekor qilishdi. Ikkinchi yirik va ancha muvaffaqiyatli model, bu g‘arbiy Yevropa va boshqa qit‘alarda kuzatildi. Bunda, jamiyatda demokratiya va erkinlik bo‘ladi, davlat huquqiy davlat sifatida tan olinadi. Insonlar va ijtimoiy qatlamlar orasida mavjud tafovutlar –repressiyalar yordamida emas, davlatning ijtimoiy himoya dasturlari orqali pasaytiriladi. Misol uchun, Germaniya yoki Kanada, yuqori darajadagi ijtimoiy davlatlar hisoblanadi. Bu davlatlarda, hukumatlar yoki maxsus tashkilotlar, yig‘ilgan soliqlardan juda ko‘p qatlamlarga kerakli miqdorda yordam beradi: bu –kam ta‘minlangan, ishsiz, boquvchisini yo‘qotgan, talabalar, yangi emigrantlar va hokazo. Bolali oilalar uchun doimiy yordam tizimlari mavjud.

Ijtimoiy davlat- bu davlatning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi bo‘yicha sifat tavsifi bo‘lib, bunda inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda davlatning tegishli majburiyatlari konstitutsiyaviy kafolatlanganligini taqozo etadi.

Ijtimoiy davlat jamiyatning umumiy manfaatlariga xizmat qilib , undagi ijtimoiy farqlarni kamaytirishga yoki istisno qilishga intiladi. Davlatning ijtimoiy xarakteri ko‘p hollarda uning qonunlarida va Bosh qonunida belgilab qo‘yilgan. 1949- yil birinchi bor GFR Konstitutsiyada, keyingi yillarda boshqa Yevropa davlatlarida , MDH davlatlari konstitutsiyasilarida, ijtimoiylik o‘zining konstitutsiyaviy ifodasini topgan . Ijtimoiy davlat insonlarning mehnati va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ish haqining minimal miqdorini belgilash, oila, onalik, otalik va bolalikka, nogironlar va keksa kishilarga yordam berishni ta‘minlash, inkluziv ta‘limni yaratish, davlat pensiyalari, nafaqalari va ijtimoiy himoyaning boshqa turlarini kafolatlash majburiyatiga ega. Ijtimoiy davlatning moddiy zamini muhtoj qatlamlarning yashash minimumini ta‘minlay oladigan iqtisodiy rivojlanishning yuksak darajasidir.

Globalashuv jarayonida va bozor iqtisodiyoti dadal va tez suratlarda rivojlana yotgan davrda olimlar ijtimoiy davlatning belgilari mavjud ekanini ta’kidlaydi shuningdek Lorens fon Shteyndan farqli ravishda ushbu jihatlariga quyidagilarni kiritadi:

- Aholining daromadlarini va boylillarini yirik mulkdorlarga zarar yetkazmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi bo‘lishi.
- Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti o‘tishi .
- Ko‘p tuzilmali va aralash iqtisodiyot rivojlanishi.
- Fuqarolik jamiyatini shakllanganligi.

- Davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish.
- Davlatning har kimga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxsning o'zini o'zi anglashi uchun teng boshlang'ich sharoitlarini ta'minlash maqsadlarini ta'minlash.
- Fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlash.
- Sug'urta ijtimoiy to'lovlarining rivojlangan tizimi va byudjetni tashkil etuvchi soliqlarning yuqori darajasi, ijtimoiy sohaga to'lovlarning yuqori miqdori.
- Aholining barcha guruhlar uchun xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan tizimi.
- Hokimiyatning bo'linishi amalga oshirilgan rivojlangan huquqiy tizim, hokimiyatning har bir tarmog'i funksiyalarini aniq amalga oshirish, ijtimoiy hayotning yaxshi rivojlangan huquqiy tizimining shakllanganligi.
- Byudjet ijtimoiy to'lovlarining mavjudligi.
- Ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi.
- Jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi.
- Fuqarolarning farovonlik darajasi uchun davlat tomonidan javobgarlikni qabul qilish.
- Fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi.<sup>1</sup>

Ijtimoiy davlat tushunchasiga ko'pchilik olimlar o'zlarining teran va o'ta boy bo'lgan fikrlarini mazmun mihiyati yetarlicha ochib berishga harakat qilishgan. Bulardan biri "Ijtimoiy davlat" deydi V.M. Baglay – "fuqarolarni ish bilan ta'minlashnisha sharoit yaratadigan, umumiy daromadlarni byudjetvosiyasida qayta taqsimlaydigan, odamlarga turmush kechirishning eng quyi chegarasini ta'minlaydigan, kichik va o'rta mulkdorlar hissasi ko'payishiga ko'maklashadigan, yollanma mehnatni muhofaza qiladigan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash va oila xususida g'amxo'rlik qiladigan, ijtimoiy ta'minotni muntazam yaxshilaydigan davlatdir"<sup>2</sup>.

Ijtimoiy davlat deganda faqatgina konstitutsiya davlat uchun aniq ijtimoiy dasturni belgilab bermaydi, balki bunda davlat amalga oshirayotgan siyosatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilab beradi. Davlat siyosatining ikki muhim jihatini aytib o'tish lozim. **Birinchisi** fuqarolarga haqiqiy munosib turmush hayot kechirish uchun insonning erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratishda o'z ifodasini topgan. Bu - mehnatni va insonlar sog'lig'ini muhofazalash, ish haqining minimal hajmini belgilash, ishsizlikning oldini olish kabi masalarni o'z ichiga oladi. **Ikkinchisi**

<sup>1</sup> Шарков Ф.И., Основы социального государства. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и Ко", 2012 — 115-115 bet

<sup>2</sup> Баглай В.М. Конституционное право Российской Федерации. – М., 2007. – 137-бет.

aholining ijtimoiy tomondan zaif qatlamlarini qo‘llab -quvvatlash, oilani, onalik, otalik, va bolalikni muhofaza qilish hamda nogironlarga va keksalarga g‘amxo‘rlik qilish kiritish mumkin<sup>3</sup>. Professor O.E Leyst fikriga ko‘ra, “Ijtimoiy davlat” nafaqat huquqiy tartibotni muhofazalashi, shuningdek kam ta‘minlanganlar va butun jamiyat manfaati uchun ijtimoiy siyosatni amalga oshirishi ya‘ni qonun bilan ish davomiyligini, bolalar va ayollar mehnatini cheklash hamda taqiqlashni, mehnatga qobiliyatsizlarni, ijtimoiy himoya bilan, ishsizlarni ish bilan ta‘minlashni, davlat hisobidan umumiy o‘rta ta‘limni, bepul tibbiy xizmatidan foydalanish kabi huquqiy tartibga solish lozim.<sup>4</sup>

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy davlat turlari haqida ma‘lumotlar berilgan: Ijtimoiy davlatining turlari:

- birlamchi ijtimoiy holati;
- ijtimoiy xizmatlar holati;
- ijtimoiy ta‘minot holati;
- ijtimoiy davlat.<sup>5</sup>

Ijtimoiy davlati rivojlanishini davrlashtirish:

- birinchi bosqich (XIX- asrning 70-yillaridan 20-asrning 30-yillarigacha) - sotsialistik;
- ikkinchi bosqich (XX - asrning 30-yillaridan 40-yillarning oxirigacha) - huquqiy ijtimoiy davlat;
- uchinchi bosqich (1940-yillarning oxiridan 1960-yillargacha) - ijtimoiy xizmatlar holati;
- to‘rtinchi bosqich (50-yillarning oxiridan 80-yillarning o‘rtalarigacha) - ijtimoiy davlat;
- beshinchi bosqich (80-yillarning boshidan 90-yillarning o‘rtalarigacha) - ijtimoiy davlatning halokati va inqirozi;
- oltinchi bosqich (90-yillarning o‘rtalaridan hozirgi kungacha) - liberal ijtimoiy davlati.

Demak, ijtimoiy davlat belgilari orasida turli olimlar turli belgilarni ajratadilar. Inson va fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash va himoya qilish, davlat va shaxsning o‘zaro javobgarligi, jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni ta‘minlash, ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni amalga oshirish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.<sup>6</sup>

<sup>3</sup> Конституция Российской Федерации: комментарий / Под общ. ред. Б. Топорнина и др. - М., 1994. - 21-бет.

<sup>4</sup> Лейст О.Э. Гражданское общество, государство и право / Общая теория государства и права. Академический курс. Отв. ред. М.Н. Марченко, Том 1. - М., 1998. - 346-бет.

<sup>5</sup> D.Z. Ernazarov “Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy davlat” tushunchasi va uning xususiyatlari “ maqolasi Ma’naviy tartbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari respublikas ilmiy-amaliy anjumani materiali Toshkent: “AFZALZODA BOOKS” nashriyoti, 2023 291-296 bet

<sup>6</sup> D.Z. Ernazarov “Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy davlat” tushunchasi va uning xususiyatlari “ maqolasi Ma’naviy tartbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari respublikas ilmiy-amaliy anjumani materiali Toshkent: “AFZALZODA BOOKS” nashriyoti, 2023 291-296 bet

Ijtimoiy davlatni ta'riflovchi ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari bor bular quyidagilar: mehnatni va odamlar sog'lig'ini muhofazalash, mehnatga haq to'lashning eng minimal miqdorini kafolatlash, oilani, onalik otalik va bolalikni davlat tomonidan himoya qilishi va qo'llab-quvvatlanishi, nogironlar va keksalarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish, davlat pensiyalarini va boshqa turdagi to'lovlarni va nafaqalarni belgilash va ijtimoiy himoyalash kafolatlash tizimini nazarda tutgan.

Ijtimoiy davlatning o'ziga xos fuksiyalari mavjud bo'lib, olimlarning ko'pchiligi ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi.

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash.
- korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash.
- yosh tadbirkorlarga yordam.
- aholi bandligini va daromadlarining doimiy o'sishini ta'minlash.
- jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy sug'urta bilan ta'minalsh.
- ta'lim, sog'liqni saqlash va ma'naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta'minlash.
- ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya qilish.
- jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni imkon qadar yumshatish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat.
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta'minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalani, sifatli ta'lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a'zolari har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

Professorlar E.I. Kozlova va O.E.Kutafin ijtimoiy davlatni ijtimoiy tenglik, umumiy hamjihatlik va o'zaro mas'ullik prinsiplarining huquq vositasi mustahkamlanganligiga tayanib, yuksak ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashni bosh vazifasi deb biluvchi davlat deb ta'riflaydilar. Ijtimoiy davlat zaif insonlarga ko'maklashadi, iqtisodiy boyliklarni ijtimoiy adolat prinsipi ruhida taqsimlab har bir insonga munosib hayot kechirishni ta'minlashga intiladi<sup>7</sup>.

Takidlash joizkiki, Inson o'z ehtiyojlarini qondirishi, haqiqiy hayot kechirishi uchun mablag'ga ega bo'lishi, shuningdek ish bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Ijtimoiy davlat shaxsning mehnat qilish huquqi har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. ishsizlikni oldini oladi va bandlikni ta'minlaydi hamda qo'shimcha ish o'rinlarni yaratadi, ijtimoiy muhtojlarni, nogironlarni pensiya va turli xildagi ijtimoiy to'lovlar bilan taminlashni o'z zimasi ga oladi. Konstitutsiya demokratik davlat sharoitiga ko'ra

<sup>7</sup> Козлова Е.И., Кутафин О.Е. Конституционное право России. М., 1999. 131-бет.

huquqiy ijtimoiy davlat fuqarolarning ravnaqiga va ularga teng sharoitlar yaratishga ko'maklashishini va hayotning ko'zga ko'ringan mashaqqatlarni imkon qadar teng taqsimlashini nazarda tutadi. Ijtimoiy davlatning funksiyalari o'ziga xos bo'lgan xususiyati bor bu ancha keng. Bunda dastlab aholi bandligini ta'minlash, jamiyat hayotidagi moddiy va iqtisodiy boyliklarni byudjet yo'li bilan muvozanatda tutib turish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va muhofaza etish, ta'lim-tarbiya sohasida g'amxo'rlik qilish, odamlarga tirikchilik uchun eng kam miqdorni belgilash, oilani himoya qilish, ijtimoiy pensiya nafaqa tizimini tubdan yo'lga qo'yish, sog'liqni saqlash hamda sport sohasini rivojlantirish kabi funksiyalarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagi yo'nalishlardagi ijtimoiy faoliyat iqtisodiyotga davlat aralashuvini kengaytirmaydi, balki bozor iqtisodiyotini va shaxsiy tashabbuskorlik ya'ni tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy davlatning birinchi maqsadlariga erishish ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yo'llaridan tashqari tegishli qonunchilik va ma'muriy- tashkiliy tuzilmalar vujudga keltirilishini ham taqozo etadi. Bu iqtisodiyotda strukturaviy islohotlarni amalga oshirish va siyosiy tizimni liberallashtirishni talab qilgan.

Ijtimoiy davlat – bu davlatning shunday modeliki, unda davlat har bir fuqaro uchun munosib turmush sifati va darajasiga erishish, jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshilik tafovutlarni yumshatish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordam berishga siyosat yuritiladi. Muxtasar qilib aytganda, davlat o'z fuqarolariga g'amxo'rlik qilishga mas'uliyat bilan yondashishi shart. Zero, ijtimoiy davlat – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z fuqarolariga muayyan darajada farovonlikni kafolatlaydigan davlatdir. Bunday tipdagi davlatda jamiyatning har bir ehtiyojmand a'zosini hech qanday istisnosiz ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi qaror topadi, davlat fuqarolar farovonligining muayyan darajasi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Bu borada hozirgi zamon tajribasiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat g'oyasi turli huquqiy hujjatlar hamda normalar bilan mustahkamlangan xalqaro tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, xalqaro siyosiy va huquqiy tizimlarda ijtimoiy davlat ikki xil ko'rishda bo'ladi. Bular bilvosita va bevosita turlarda o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin. Bilvosita ko'rinishda "farovonlikni ta'minlovchi davlat" yoki "umumfarovonlik va xurramlikni ta'minlovchi davlat" kabi tushunchalar orqali ijtimoiy davlat tamoyili Buyuk Britaniya Konstitutsiyaviy aktlarida, Italiya Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Bevosita ko'rinishda esa "ijtimoiy davlat" tushunchasi 1949 yilgi Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ijtimoiy davlatning Skandinaviya va Kontinental modellari ham mavjud bo'lib, bunda davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi. Unga ko'ra, Germaniya

“demokratik va ijtimoiy federal davlat” deb e’lon qilingan. Shuningdek, Frantsiyaning 1958 yilgi Konstitutsiyasida “bo‘linmas, dunyoviy, ijtimoiy, demokratik respublika”, Ispaniyaning 1978 yilgi Konstitutsiyasida esa “huquqiy, demokratik, ijtimoiy davlat” tamoyili o‘z aksini topgan.

Ijtimoiy davlat tor ma’nodagi o‘z faoliyatida aholiga nafaqalar to‘lashni, jamiyatga xizmat ko‘rsatishni amalga oshiradi va uy-joy bilan ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal qiladi. Keng ma’nodagi nafaqat aholini bevosita qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sezilarli darajada ko‘p sonli dasturlarni, balki iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shu jumladan, bandlik va u bilan bog‘liq masalalarni hamda kompleks makroiqtisodiy boshqaruvni amalga oshiradi.

Milliy davlatchiligimiz tarixini o‘rganganimizda ham “ijtimoiy davlat” tushunchasi shunga o‘xshash nomlarda ko‘plab uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Ijtimoiy davlat g‘oyasini eng avvalo, qadimgi sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar ideal davlat haqida bildirilgan fikrlar aynan “ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyatini tarannum etgan. Ijtimoiy davlat- insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri, davlatchilik rivojining bosqichi. Ijtimoiy davlat barpo etish Alisher Navoiy bobomizning ham eng ezgu orzusi bo‘lgan. U o‘zining asarlarida va oqilona boshqaruvida insonlarning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma’rifatli davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o‘zaro mehr-oqibatli va bag‘oyat axloqiy bo‘lish kabi qarashlarni ilgari surgan edi. Shunga o‘xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin. Darhaqiqat “ijtimoiy davlat” tushunchasi bu birinchi o‘rinda insonning salohiyatini va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlarga munosib turmush tarzini kechirishiga zarur sharoitlar yaratish hamda kamballikni qisqartirish, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ijtimoiy davlat – bu uning doimiy va normal hayot tarzini tashkil etishga, shuningdek davlatning gurg‘urab rivojlanishiga, insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlariga qat’iy himoya qilishga qaratilganligini anglatadi.

Ijtimoiy davlat fuksiyalari – ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo‘llab – quvvatlash, ishsizlikni oldinini olish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ularga yordam berish, aholining bandligini ta’minlab doimiy daromadlar o‘lishini nazoratga olish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va ma’naviy- madaniy rivojlanishining qulay sharoitni ta’minlash, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, aholiga beriladiga imtiyozlarni qayta taqsimlash bilan munosib turmush shariatini yaratib berishdan iborat.

Ijtimoiy davlat belgilari - sifatli ta’lim bepul malakali tibbiy xizmat, ijtimoiy iqtisodiyot, fuqarolik jamiyatining rivojlanganligi, strategik davlat dasturlarni ishlab

chiqishi va uni amalga oshirish va aholiga tadbiriq etishdavlat barcha aholiga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va insonni o'zini o'zi anglash uchun teng boshlang'ich sharoitlarni ta'minlash, fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy sohaga to'lovlarning yuqori darajasi, Ijtimoiy hayotni to'laqonli rivojlangan tartibga solish tizimi, mamlakatdagi Ijtimoiy to'lovlarning mavjudligi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy bandlike davlat apparatida mavjudligi, jamiyatning barcha mavjud a'zosini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi, fuqarolarning munosib farovonlik darajasi uchun davlat javobgarlikni qabul qilish.

Siyosatshunos Kamoliddin Rabbimov ijtimoiy davlat tushunchasi haqida shunday ta'rif beradi. Ijtimoiy davlat nihoyatda katta tushuncha. Bu tushuncha oxirgi ikki asrda G'arb mamlakatlarida davlatchilikning markaziy xarakteristikasiga aylandi. Ijtimoiy davlatning eng katta qadriyat- bu jamiyatdagi tenglik. Lekin jamiyatdagi tenglikni ta'minlashning vositalari ko'p. ya'ni tenglikni ta'minlash erkinlik orqali bo'ladimi yoki erkinlikni inkor qilgan holdami degan savolga shunday javob berdi. XX asrda g'oyaviy kurash markazida tenglik turdi. Totalitar Sovet ittifoqidagi markaziy qadriyat tenglik edi. Kekin deydi bu tenglikni ta'minlashda erkinlik mutloq inkor qilindi. Masalan, Shimoliy Koreya va Kubada eng katta qadriyat- bu tenglik. Agar e'tibor berilsa, G'arbiy Yevropa davlatlari uchun ham tenglik katta qadriyat. Lekin erkinlik orqali tenglik ta'minlanadi deydi.

Ijtimoiy davlatning o'ziga xos jihatlari bialn sotsalizmdan qanday farqi bor. Aslida ham, sotsializm fuqarolarning tengligini ta'minlash bilan ularning erkinligini ta'minlamaydi. Shuningdek, ijtimoiy davlatda jamiyatga eng yuqori darajada erkinlik beriladi. Agar zamonaviy dunyoviy ilmiy manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ijtimoiy davlat, eng avvalo ijtimoiy adolat, o'z fuqarolarning farovonligi, ijtimoiy tomondan himoyalanganligi to'g'risida himoya qiladigan davlatdir. Ijtimoiy davlat o'zining boshqaruv faoliyatini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari xususan: ishsizlar, mehnat qobiliyatini mahrum bo'lganlar, boquvchisini yo'qotganlar, nogironligi bor bo'lgan insonlar, bolalar, va keksalarni ijtimoiy himoyalash bilan uzviy bog'liq olib boradi.

#### FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шарков Ф.И.. Основы социального государства. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и Ко", 2012 — 115-115 bet
2. Баглай В.М. Конституционное право Российской Федерации. – М., 2007. – 137-bet.
3. Конституция Российской Федерации: комментарий / Под общ. ред. Б. Топорнина и др. - М., 1994. - 21-bet.

4. Лейст О.Э. Гражданское общество, государство и право / Общая теория государства и права. Академический курс. Отв. ред. М.Н. Марченко, Том 1. – М., 1998. – 346-бет.
5. D.Z.Ernazarov “Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy davlat” tushunchasi va uning xususiyatlari “ maqolasi Ma’naviy tartbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari respublikas ilmiy-amaliy anjumani materiali Toshkent: “AFZALZODA BOOKS” nashriyoti, 2023 291-296 bet

